



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023-yil yanvar-noyabr



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-noyabr)



Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi -
65,9 %



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
6 280,9
ming so'm




Jami
korxonalarda
xizmatlar
sohasidagi
korxonalar
ning
ulushi - **73,2 %**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-noyabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	26 078,8	100,0	113,2
Samarqand sh.	11 373,7	43,6	113,8
Kattaqo'rg'on sh.	586,6	2,3	110,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	793,0	3,0	110,3
Bulung'ur	690,3	2,6	110,5
Jomboy	1 090,6	4,2	111,0
Ishtixon	897,6	3,4	110,1
Kattaqo'rg'on	940,8	3,6	110,5
Qo'shrabot	504,0	1,9	110,1
Narpay	840,2	3,2	110,3
Payariq	913,4	3,5	110,8
Pastdarg'om	1 587,7	6,1	110,7
Paxtachi	566,9	2,2	110,3
Samarqand	1 968,5	7,6	122,1
Nurobod	493,2	1,9	110,4
Urgut	1 658,4	6,4	111,2
Toyloq	1 173,9	4,5	119,8

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	6 280,9	110,7
Samarqand sh.	19 687,8	111,5
Kattaqo'rg'on sh.	6 239,8	108,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	4 645,6	107,7
Bulung'ur	3 465,5	108,1
Jomboy	5 844,5	108,3
Ishtixon	3 296,2	107,7
Kattaqo'rg'on	3 242,9	108,3
Qo'shrabot	3 597,6	108,0
Narpay	3 735,9	108,2
Payariq	3 391,9	108,1
Pastdarg'om	4 200,4	108,4
Paxtachi	3 756,4	108,6
Samarqand	7 307,1	119,5
Nurobod	3 070,8	108,2
Urgut	3 012,0	108,5
Toyloq	5 392,4	116,9

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2023-yil yanvar-noyabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	26 078,8	100,0	113,2
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 188,4	4,6	121,9
Moliyaviy xizmatlar	4 117,1	15,8	113,8
Transport xizmatlari	6 123,2	23,5	109,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 559,8	21,3	108,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 474,2	5,6	129,6
Savdo xizmatlari	6 769,6	26,0	109,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	615,9	2,4	111,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 422,2	5,5	129,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	530,7	2,0	111,7
Ijara xizmatlari	694,5	2,7	107,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	739,3	2,8	109,1
Shaxsiy xizmatlar	1 155,6	4,4	109,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	427,1	1,6	122,1
Boshqa xizmatlar	821,0	3,1	118,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023-yil yanvar-noyabr)




2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2023-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 672,9** mlrd. so'mga oshib, **4 117,1** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **15,8** foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,8 %** ni tashkil etdi.


Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr)

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **6 123,2** mlrd. so'mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **109,2 %** ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **23,5 %** ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023-yil yanvar-noyabr)



Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr)

2023-yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 559,8** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi.




2023-yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,6 %**). Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuk tashish xizmatlarining ulushi **28,4** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr)

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining to'rttan uch qismini, ya'ni **74,3** foizni tashkil etdi.




2023-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar ulushi **37,4 %** yoki **16 526** birlik bilan ustunlik qilmoqda.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr)

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 1 188,4 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 4,6 foizni tashkil etdi.




2023-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni 673 birlikka yetdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi


(yanvar-noyabr)

2023-yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 422,2** mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **129,4 %** ni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)

2023-yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **530,7** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,0 %** ni tashkil etdi.




2023-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 017** birlikni tashkil etdi.



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)

2023-yil yanvar-noyabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **615,9** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni, **2022-yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,0 %** ni tashkil etgan.




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)

2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu davrida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **1 056,0** mlrd. so'mga oshib, **1 474,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023-yil yanvar-noyabr)



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr)




2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan joriy yilning o'rganilayotgan davrida ijara xizmatlari hajmi **323,9** mlrd. so'mga oshib, **694,5** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr)

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **739,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2022-yilning mos davriga nisbatan** o'sish sur'ati **109,1 %** ni tashkil etgan.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-noyabr)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2023-yilning** ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **152,6** mlrd. so'mga oshib, **427,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: (66) 235-79-35

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.